

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA IQTISODIY JIHATLARINI BAHOLASH

Atamurodov Boburmirzo Bahram o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik
oliy maktabi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolamizda "O'zbekneftgaz" AJ misolida aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari faoliyatini tahlil qilish va iqtisodiy jihatlarni baholashga bag'ishlangan. Zamonaviy biznesdagi tez o'zgarishlar sharoitida ushbu tadqiqotning dolzarbligi kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kuzatuv kengashlarining samarali faoliyat yuritishi zaruratidir.*

Kalit so'zlar: *tahlil metodlari, kuzatuv kengashi, kompaniya barqarorligi, tizim barqarorligi.*

KIRISH

Bozor qonuniyatlarini hisobga olgan holda aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari faoliyatini tahlil qilish va iqtisodiy jihatlarni baholash

amaliyotiga doimiy ravishda diqqat-e'tibor qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu boisdan mazkur masala xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning ham e'tiboridan chetda qolmasdan kelmoqda. Xususan, Jahon banki guruhi tomonidan har yili e'lon qilib kelinayotgan "Biznes yuritish" (Doing Business) hisobotlarida biznes yuritishga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida minoritar investorlar huquqlarini himoya qilish holati alohida davlatlar kesimida tahlil qilinib, reyting tuzib chiqilmoqda. Shuningdek Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 2015-yilda hozirgi real shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda "Korporativ boshqaruv prinsiplari" qayta e'lon qilinganligi korporativ boshqaruv amaliyotining milliy va jahon iqtisodiyoti uchun qay darajada muhimligini ko'rsatmoqda.

Respublikamizda ham iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash maqsadida korporativ tuzilmalar, xususan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida qator islohotlar o'tkazilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish" 2 masalasi alohida belgilab qo'yildi. Bunda korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkor qilish va faoliyat shaffofligini ta'minlash, aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kabi jihatlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda. Keltirilayotgan jihatlarda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etishini ham shu o'rinda qayd etib o'tish zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiyotda Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari faoliyatini tahlil qilish va iqtisodiy jihatlarini baholash muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari faoliyatini tahlil qilgan holda qator iqtisodchi olimlar tegishli ta'riflarni shakllantirgan. Xususan, V.A. Shegorsova tahriri ostida tayyorlangan darslikda, «Aksiya bozori insoniyatga o'z pullarining muvozanatini saqlashga imkoniyat» tarzidagi ta'rifi shakllantirilgan¹.

Professor O.I.Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan darslikda kreditning mohiyatiga aniq ta'rif berilmagan. Biroq, ulaming fikricha, aksiya bozorini o'sish va tushush holatlari buni rivojlantirishni, iqtisodiy kategoriyasidir.

Boshqa rossiyalik iqtisodchi olimlar «Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari faoliyatini tahlil qilish bozorga doimiy daromad qilsih imkoniyatini beradi», degan ta'rifni berishgan².

O'zbekistonlik iqtisodchilardan professor Sh. Abdullayeva tomonidan nashr ettirilgan darslikda: «Aksiyadorlik jamiyatini tahlili va baholash jaroyoni-korxonalarining iqtisodiy jozibadorligini oshiradi» deb ta'kidlangan³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari faoliyatini tahlil qilish va investitsion jarayonlarni o'rgangan holda ularni baholash, taqqoslash, parallel tahlil metodlari asosida korxonalar o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O'zbekneftgaz” AJ faoliyati davomida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Aksiyadorlik jamiyatining 2022-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotida qayd etilishicha, “O'zbekneftgaz” AJ tarmog'ida 2022-yil “Geologiya-qidiruv ishlarini jadallashtirish yili” deb e'lon qilingan edi. Jamiyatda geologiya-qidiruv ishlari “2022 yilgi “O'zbekneftgaz” AJ bo'yicha uglevodorod xom-ashyo bazasini qayta tiklash va rivojlantirish dasturi” ga muvofiq amalga oshirildi. Dasturga asosan 2022 yilda “Uchqir-G'arbi” hamda “Sho'rtan” koni va uning guruhidagi konlari bo'yicha 1 840 kv. km hajmda 3D seysmik qidiruv ishlari bajarildi, 14 ta yangi maydonda izlov burg'ilash ishlari boshlandi, 45 ta quduq qurilish bilan tugatildi, 124,9 ming p.m. hajmda izlov-qidiruv burg'ilash ishlari amalga oshirildi. Mazkur tadbirlar doirasida jami 1 241,6 mlrd so'm mablag' o'zlashtirildi. Natijada, 2022 yil yakuni bilan tabiiy gaz zahirasi 2 35,1 mlrd. kub metr, gaz kondensati zahirasi 1,2 mln. tonna o'stirildi hamda 5 ta yangi Niyoz, Yangi Alat, Quyi Pamuk, Yangi Tegirmon va Moyquduq neft va gazkondensat konlari ochildi (1-jadval).

1-jadval.

Geologiya ishlarining ko'rsatgichlari⁴.

No			
----	--	--	--

¹ Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под ред. проф. -Щегорцова В.А. М.; ЮНИТИ-ДАНА, 2005. -С. 175.

² Деньги, кредит, банки: Учеб. - 2 - е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. -М.: ТК Велби, изд -в о Проспект, 2008. -С.428.

³ Абдуллаева Ш.З Пул, кредит вабаахлар. -Т.: «Икгосод - Молия», 2007,165-6.

⁴ Aksiyadorlik jamiyati yillik hisoboti asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022 yil		
			rejada	amalda	%
1.	3D seysmik qidiruv ishlari	kv km	2 400	1 840	76,7
2.	Yangi maydonlarni burg'ilashga kiritish	maydon	20	14	70,0
3.	Izlov-qidiruv burg'ilash hajmi	ming pog.m.	215	124,9	58,1
4.	Quduqlarni qurilish bilan tugatish	quduq	75	45	60
5.	Uglevodorod zahiralarini o'stirish, shu jumladan:	mln tn sh.yo.			
	- tabiiy gaz	Mlrd. kub. m	35.1	35.1	100
	- neft va kondensat	Mln. t	1.0	1.21	121
6.	Geologiya-qidiruv ishlariga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar	mlrd so'm	2 800	1241,6	44,3

2022 yil davomida uglevodorodlarni qazib chiqarish prognoz ko'rsatkichlarini ta'minlash maqsadida:

- 84 ta yangi ishlatish quduqlari burg'ilab ishga tushirildi (reja bajarilishi 80,0%);

- konlardagi qazib chiqarishning bazaviy miqdorini ushlab turish maqsadida kapital ta'mirlash va intensivikasiya ishlari 594 ta quduqda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lsa, amalda 711 ta quduqda kapital ta'mirlash va intensivikasiya ishlari amalga oshirildi, reja ko'rsatkichi 119,7% ga bajarildi;

- qazib chiqarish hajmlarini bir maromda ushlab va bosqichmabosqich o'sish ko'rsatkichlarini ta'minlash maqsadida 27 ta texnologik tadbirlar o'tkazildi.

Bundan tashqari Geologik-texnik tadbirlarni amalga oshirish natijasida bazaviy qazib chiqarish hajmlariga qo'shimcha ravishda 3,9 mlrd. kub metr tabiiy gaz va 95,1 ming tonna suyuq uglevodorodlar qazib olindi.

Yana bir ijobiy o'zgarish, 2022 yil davomida, Jamiyat bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlari amalga oshirish natijasida

302,3 mlrd. so‘m yoki yillik xarajatlarni 6,2% ga kamaytirishga erishildi. Jumladan, bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari va ekspluatasiya xarajatlarini kamaytirish hisobiga 199,7 mlrd. so‘m, energiya tejash hisobiga 16,6 mlrd so‘m, boshqaruv apparatini saqlash xarajatlarini kamaytirish hisobiga 23,8 mlrd so‘m, boshqa xarajatlarni kamaytirish hisobiga 62,2 mlrd so‘m.

Bugungi kunga kelib jamiyatning moliyaviy ko‘rsatgichlari ham yaxshilanib bormoqda. Bu ko‘rsatgichlar avvalo yaratilgan qulayliklar va boshqaruv sohasining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bilan izohlanishi mumkin. Jamiyat tomonidan o‘tgan yil davomida rejalashtirilgan va bajarilgan moliyaviy ko‘rsatgichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak ijobiy natijalarni ko‘rishimiz mumkin (2.2-jadval). Jamiyat tomonidan yil davomida byudjetga 3,3 trln. so‘m soliq to‘lovlari hisoblanib, to‘lovlar amalga oshirildi. 2022 yil davomida “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan vazirlik, idora va korxonalariga etkazib berilgan neft’ va gaz mahsulotlar uchun debitor qarzdorligi 3 971,4 mlrd. so‘mni, shundan “O‘ztransgaz” AJ qarzi - 2 831,7 mlrd. so‘mni, “Uzgastrade” MChJ qarzi 664,5 mlrd. so‘mni, “Issiqlik elektrostansiyalari” AJ – 8,7 mlrd. so‘mni, “Hududgazta‘minot” AJ – 160,2 mlrd. so‘mni hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtiruvchilar – 164,5 mlrd. so‘mni, kreditor qarzdorlik esa 27,1 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda.

2-jadval.

Jamiyatning moliyaviy xo‘jalik faoliyati natijalari⁵.

r	T/ Ko‘rsatkichl ar nomi	2022 yil (reja)	2022 yil (amalda)	Farqi , + / -	Baj., %
1.	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	14 547,4	13 305,1	-1 242,3	91,5%
2.	Sotilgan mahsulot (tovar ish va xizmat) larning tannarxi	7 699,5	6 786,6	- 912,9	88,1%
3.	Davr xarajatlari	3 974,2	3 988,4	14,2	100,4 %
	sotish xarajatlari	88,9	296,2	207, 3	333,1 %
	ma‘muriy xarajatlar	228, 2	619,2	391, 0	271,4 %

⁵ Jamiyatning yillik hisoboti ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

	boshqa operasion xarajatlar	3 657,1	3 073,0	- 584,1	84,0%
4.	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	3 903,	1 326,7	4 423,	146,9 %
5.	Moliyaviy faoliyatning daromadlari	1 402,	695,9	8 293,	173,1 %
6.	Moliyaviy faoliyatning bo'yicha xarajatlar	1 320,5	1 746,3	8 425,	132,2 %
7.	Daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar foyda (zarar)	2 858,7	2 806,3	-52,4	98,2%
8.	Daromad (foyda) solig'i	8 428,	320,4	- 108,4	74,7%
9.	Sof foyda	2 429,9	2 486,0	56,1	102,3 %

Hukumat topshiriqlariga asosan Jamiyat tomonidan 2022-yil davomida 116,9 mlrd so'mlik homiylik yordami ko'rsatildi, shundan Qoraqolpog'iston Respublikasi Qonliko'l tumaniga – 5,3 mlrd so'm, professional futbol klublarga 22,8 mlrd so'm, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasiga 8,0 mlrd so'm, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya Davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filialiga 36,4 mlrd so'm, Tojikiston Respublikasi Xatlon viloyatida tibbiyot majmuasi qurilishiga 31,0 mlrd. so'm, Xalqaro Orolni qutqarish fondiga 4,0 mlrd. so'm va boshqa yo'nalishlar uchun 9,4 mlrd. so'm homiylik mablag'lari o'rnatilgan tartibda ajratildi.

Mintaqada yuzaga kelgan geosiyosiy vaziyatni hisobga olib, Rossiya va Ukraina davlatlar kompaniyalari tomonidan ishlab chiqariladigan uskunalar va boshqa moddiy-texnik resurslarni etkazib berishda uzilishlarni oldini olish maqsadida choralar ko'rildi. Xususan, Ukrainaning "Motor Sich" kompaniyasi tomonidan kapital ta'mirlangan 4 dona "AI-336-2-8" rusumdagi gazturbinali dvigatellar muqobil yo'nalishlar (Turkiya, Ruminiya, Bolgariya, Turkiya, Gruziya, Ozarbayjon, Kaspiy ko'rfazi, Qozog'iston davlatlari) orqali etkazib keltirildi. Bundan tashqari, Rossiya va Ukraina davlatlari kompaniyalaridan xarid qilinishi ko'zda

tutilgan kimyoviy reagentlar, uskunalar, boshqa turdagi tovarlar hamda butlovchi qismlarning Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Hindiston mamlakatlardagi muqobil ishlab chiqaruvchilari bilan muzokaralar olib borilib, shartnoma tuzish imkoniyatlari o'rganilmoqda. Shu bilan birga, Jamiyatda xarid jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun talablariga binoan 2022 yilning 1 yanvaridan boshlab Jamiyat tomonidan barcha xarid jarayonlari maxsus axborot portali orqali to'liq elektron shaklda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotning keng qamrovli xulosasini ishlab chiqishda asosiy xulosalar, olingan tushunchalar va kelgusidagi harakatlarga ta'sir ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Xulosa tadqiqot davomida o'rganilgan turli mavzularni sintez qilib, korporativ boshqaruv bilan shug'ullanuvchi manfaatdor tomonlar uchun amaliy tavsiyalar berib, tadqiqot sayohatining yakuni bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, tadqiqot mavzusining ahamiyatini yana bir bor ta'kidlash zarur. Kuzatuv kengashlarini samarali boshqarish aksiyadorlik jamiyatlarining muvaffaqiyati va barqarorligi uchun asos bo'lib, korporativ boshqaruv amaliyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy islohotlar va o'tishlar davom etayotgan O'zbekistonda kuzatuv kengashlari faoliyatini optimallashtirish investorlar ishonchini mustahkamlash, shaffoflikni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolamiz davomida biz ilg'or xalqaro tajriba va ilmiy fikrlarga tayangan holda O'zbekiston sharoitida duch keladigan noyob muammolarni o'rganib, kuzatuv kengashi boshqaruvining nozik jihatlarini o'rgandik. Tekshiruvimiz takomillashtirishning bir qancha muhim yo'nalishlarini va aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish imkoniyatlarini ta'kidlab o'tdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Červená M. Supervisory Boards of Joint Stock Companies and Employee Co-determination in the Czech Republic. – 2022.
2. Kulaha E., Melnychenko O. Legal Status of Supervisory Boards of State-Owned Joint-Stock Companies //Bull. Taras Shevchenko Nat'l U. Kyiv Legal Stud. – 2020. – T. 115. – C. 35.
3. Kostyuk A. Board practices: an international review //Kostyuk A. Board Practices: An International Review. A. Kostyuk, Corporate Ownership and Control. – 2003. – T. 1. – №. 1. – C. 107-118.

4. Baxram o'g'li A. B. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI //World scientific research journal. – 2024. – T. 24. – №. 1. – С. 172-176.
5. Akrom M. AKTSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KUZATUV KENGASHLARINING FAOLIYATINI TASHKIL QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH //ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 104-110.
6. Alimova Q. TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – №. 1.
7. Mamanazarov S. Legal Issues of the Role of Supervisory Board in Governance Joint-stock Companies //JournalNX. – С. 1100-1107.
8. Baxtiyor o'g'li B. J. Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish va ular faoliyatini huquqiy tartibga solinishi //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 9. – С. 952-961.
9. Shuhrat Abdulazizov Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliyaviy strategiyasi va ularning moliyaviy holati tahlili // Science and Education. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aksiyadorlik-jamiyatlarining-korporativ-moliyaviy-strategiyasi-va-ularning-moliyaviy-holati-tahlili> (дата обращения: 11.05.2024).
10. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.
11. . Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property. New York: Macmillan, 1932. 88
https://edisciplinas.usp.br/pluginfile.php/197990/mod_resource/content/1/DCO0318_Aula_0_-_Berle__Means.pdf.
12. Зяблицкий А. Проблема разграничения контроля и управления в российских корпорациях. 2019. // https://zakon.ru/blog/2019/4/25/problema_razgranicheniya_kontrolya_i_upravleniya_v_rossijskih_korporacijah